

**Autsorsing shartlari asosida xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha  
SHARTNOMA № 4**

Arnasoy tumani

2022 yil « 12 » aprel

Arnasoy tuman «ARNASOY YOUTH» XK nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi Eshimov Mamadiyor (keyingi o'rinlarda Autsorser deb ataladi) bir tomondan va Arnasoy tuman tibbiyot birlashmasi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi rahbari Abdusattarova Muxabbat (keyingi o'rinlarda Buyurtmachi deb ataladi) ikkinchi tomondan keyinchalik Tomonlar deb ataladi, ushbu Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

**I. Shartnoma predmeti**

1.1. Autsorser Buyurtmachining buyurtmasi bo'yicha mazkur Shartnomaning 1.2-bandida ko'rsatib o'tilgan xizmatlarni ko'rsatish, Buyurtmachi esa ushbu xizmatlar uchun pul to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Autsorser mazkur shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan muddatdan boshlab, u tugaguniga qadar har kuni Buyurtmachini autsorsing xizmati uchun hamda O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari bilan belgilangan sanitariya-gigiyena normalari va qoidalariga rioya etgan holda, Buyurtmachi bilan kelishilgan buyurtmalarni bajarish jadvaliga muvofiq ta'minlash majburiyatini, keyingi o'rinlarda Xizmatlar deb ataladi, o'z zimmasiga oladi.

1.3. Xizmat ko'rsatish muddati:

2022 yil « 12 » apreldan 2022 yil « 15 » may gacha.

1.4. Tomonlar bajarilgan ishlarining yig'ma dalolatnomasi va Autsorser tomonidan amalda ko'rsatilgan Xizmatlar uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hisob-faktura imzolanib Buyurtmachi Autsorserning mazkur Shartnomada ko'rsatilgan bank hisob-raqamiga pul mablag'lari o'tkazgandan so'ng Xizmatlar ko'rsatilgan deb hisoblanadi.

**II. Tomonlarning huquq va majburiyatlari**

**2.1. Autsorser quyidagi huquqlarga ega:**

2.1.1. Ijaraga olingan mol-mulkdan foydalanish;

2.1.2. Ijaraga olingan bino va inshootlarning ichki va tashqi qismida texnik jihatdan jihozlash va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish;

2.1.3. Xizmatlar tannarxining o'zgarishi munosabati bilan shartnomaga o'zgartirish kiritish taklifi bilan chiqish;

2.1.4. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'z vaqtida to'lovlar amalga oshirilishini talab qilish;

2.1.5. Ko'rsatilgan xizmatlar natijasida foyda olish;

2.1.6. Buyurtmachidan shartnoma shartlarining bajarilishini talab qilish;

2.1.7. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlar.

**2.2. Autsorser quyidagilarga majbur:**

2.2.1. Ijaraga olingan bino va inshootlar, jihozlardan maqsadli hamda oqilona foydalanishi, saqlashi, nosoz holga kelganda ularni o'z hisobidan ta'mirlashi, shuningdek, kommunal xarajatlarini qoplashi;

2.2.2. Outsorsing xizmatini ko'rsatishda texnika, yong'in, mehnat muhofazasi hamda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga qat'iy rioya etishi;

2.2.3. Tovar (ishlar, xizmatlar)ning sifatli ishlab chiqarilishini va buyurtmachiga yetkazilishini ta'minlashi;

2.2.4. Maxfiylik tartibiga qat'iy rioya qilishi;

2.2.5. Shartnomani bekor qilish haqida buyurtmachini ikki oy oldin yozma ravishda ogohlantirish, ushbu muddat tugaguniga qadar esa buyurtmachining tegishli xizmatlarini uzluksiz tashkil etishni ta'minlashi;

2.2.6. Xizmatlarni sifatli, mazkur Shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan muddatda va to'liq hajmda ko'rsatishi;

2.2.7. Xizmatlar ko'rsatish jarayonida Outsorser mazkur shartnoma shartlariga amal qilmasdan, xizmatlar sifatining yomonlashuviga olib kelgan barcha kamchiliklarni Buyurtmachining talabi bo'yicha bir kun davomida bepul to'g'rilashi;

2.2.8. Xizmatlarning sifatsizligi, xizmatlarni bajarish uchun vaqtincha foydalanishga beriladigan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) xonalari holati, shuningdek, tegishli inventarlarning sanitariya qoidalariga javob bermasligi aniqlanganda, Outsorser zudlik bilan Buyurtmachining aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha qonuniy talabini bajarishi;

2.2.9. Malakali, tajribali, qo'yilgan vazifani (xizmatni, ishni) amalga oshirish huquqini beruvchi tegishli hujjatlari mavjud bo'lgan, shuningdek, belgilangan tartibda va muddatda tibbiy tekshiruvdan o'tgan xodimlarga (talab etilgan hollarda) xizmatlarni bajarish jarayoniga ruxsat etishi;

2.2.10. Xodimlar zimmasiga Buyurtmachining hududida odob-axloq qoidalariga, shuningdek, ichki tartibga rioya qilish majburiyatini yuklashi;

2.2.11. Xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni shaxsan bajarishi, mazkur Shartnoma shartlarini bajarishni uchinchi shaxsga topshirmasligi;

2.2.12. Mazkur shartnoma shartlarini bajarish doirasida Buyurtmachi tomonidan vaqtincha foydalanishga topshirilgan uskunalar, jihozlar, idishlar, asboblari, mebellar, inventarlar va boshqalar moddiy vositalarni soz holda saqlashi, ta'mirlashi, shuningdek, binolarni ta'mirlashi;

2.2.13. Tomonlar imzolaydigan tegishli qabul qilish-topshirish dalolatnomasini rasmiylashtirgan holda, Buyurtmachidan binolarni (xonalarni), uskunalarni, jihozlarni, asboblarni, mebellarni, inventarlar va boshqalar moddiy vositalarni qabul qilib olishi;

2.2.14. Mazkur shartnomani bekor qilish haqida Buyurtmachini ikki oy oldin yozma ravishda ogohlantirishi, ushbu muddat tugaguniga qadar esa Buyurtmachiga xizmatlarni uzluksiz ko'rsatilishini ta'minlashi;

2.2.15. Mazkur shartnomaga asosan Xizmatlarni ko'rsatish ishlariga jalb etilgan xodimlarni o'qitishni (malakasini oshirishni) amalga oshirishi (talab etilgan hollarda);

2.2.16. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar.

### **2.3. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:**

2.3.1. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) sifatli ishlab chiqarilishi (bajarilishi, ko'rsatilishi)ni talab qilish;

2.3.2. Outsorserning faoliyatiga aralashmagan holda, shartnoma shartlarining bajarilishini nazorat qilish;

2.3.3. Shartnomani bekor qilish to'g'risida 10 kun oldin Outsorserni yozma ravishda ogohlantirish, bunda ko'rsatilgan xizmatlarning qiymatini belgilangan tartibda to'lash;

2.3.4. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlar.

#### **2.4. Buyurtmachi quyidagilarga majbur:**

2.4.1. Bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi narxlar bo'yicha bir oyda kamida bir marta Xizmatlar haqini to'lashi;

2.4.2. Outsorserga mazkur Shartnoma shartlarini bajarish doirasida binolarni (xonalarni), uskunalarni, jihozlarni, asboblarni, mebellarni, inventarlar va boshqa moddiy vositalarni vaqtincha foydalanishga berishi;

2.4.3. Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar.

### **III. Xizmatlar narxi va o'zaro hisob-kitoblar tartibi**

3.1. Mazkur shartnomaning ilovasiga muvofiq xizmatlar narxi 43 000 000 ( qirq uch million ) so'mni-tashkil etadi.

3.2. Outsorser tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'zaro hisob-kitoblar bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlarning amaldagi qiymati bo'yicha bir oyda kamida bir marta amalga oshiriladi.

3.3. Ko'rsatiladigan xizmatlarning amaldagi soni haqidagi ma'lumotlar va xizmatlarning amaldagi narxi asosida Buyurtmachi kundalik buyurtmaga muvofiq Outsorser bilan birgalikda har o'n kunda, to'lanishi lozim bo'lgan summasi ko'rsatilgan, Outsorser va Buyurtmachi tomonidan imzolanadigan bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi tuziladi va hisob-faktura rasmiylashtiradi.

3.4. Buyurtmachi tomonidan olinayotgan maxsulot uchun oldindan 30% to'lovni amalga oshiradi, maxsulotni olgan kundan keyin 70% to'lov to'lab beriladi. Buyurtmachi tomonidan amalda ko'rsatilgan xizmatlar narxi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bajarilgan ishlar dalolatnomasi va hisob-faktura olingan vaqtdan boshlab, 10 bank kuni davomida Shartnomada belgilangan summadan ortiq bo'lmagan miqdorda to'lanadi.

3.5. Mazkur Shartnomaning ilovasida ko'rsatilgan, shartnomaning prognoz summasini hisoblash uchun xizmatlarning narxlarini tomonlardan birining tashabbusi bilan qayta ko'rib chiqiladi.

### **IV. Tomonlarning majburiyatlari**

4.1. Outsorser shartnoma majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmagan hollarda, Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5 foiz miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan xizmatlar oylik narxining 50 foizidan oshmasligi kerak.

4.2. Mahsulot uchun buyurtmachi o'z vaqtida mahsulot uchun to'lovni to'lamaganligi uchun sotib oluvchi sotuvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0.4 foizi miqdorida penya to'laydi, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya tulaydi,

4.3. Penya (jarima) to'lash Tomonlarning zimmasidagi majburiyatlarini bajarishdan yoki buzilishlarni bartaraf qilishdan ozod etmaydi.

4.4. Mazkur Shartnoma shartlarining bajarilmasligi yoki tegishli darajada bajarilmasligi uchun Tomonlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi talablarida, «Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida nazarda tutilgan javobgar bo'ladilar.

4.5. Buyurtmachiga har chorakda bir marotaba ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati, ijaraga berilgan bino va inshootlarning holatini monitoring o'tkazishga (outsorserning moliyaviy faoliyatiga aralashmagan holda) sharoitlar yaratish.

4.6. Tomonlarning Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi talablarida, «Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

#### **V. Nizolarni hal etish tartibi**

5.1. Mazkur Shartnomani bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar va kelishmovchiliklar imkon qadar Tomonlar o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal etiladi.

5.2. Nizolar va kelishmovchiliklarni Tomonlar o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal etib bo'lmaydigan holatlarda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan kelishmovchiliklarni sudgacha bartaraf qilish tartib-taomili amalga oshirilgandan so'ng ular O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda sudga ko'rib chiqish uchun beriladi.

#### **VI. Fors-major holatlar**

6.1. Tomonlar majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar bunday holatlar yengib bo'lmas kuch, ya'ni tabiiy ofatlar, tabiiy va texnogen tUSDagi favqulodda holatlar va alohida davr oqibati hisoblansa va davlatning tegishli organlari tomonidan tasdiqlansa, javobgarlikdan ozod qilinadi. Bunda mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati mutanosib ravishda ushbu hodisalar ro'y bergan muddatga suriladi.

#### **VII. Yakunlovchi qoidalar**

7.1. Ushbu Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar faqat ular yozma shaklda rasmiylashtirilib, Tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolanib, G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgandan so'ng haqiqiy hisoblanadi va mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi. Mazkur Shartnomaning barcha ilovalari uning ajralmas qismini tashkil etadi.

7.2. Tomonlarning hech biri mazkur Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa Tomonning yozma shakldagi roziligisiz biror bir uchinchi tomonga berib yuborishi mumkin emas.

7.3. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan. Ikkala nusxa aynan bir xil bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega. Tomonlarning har birida mazkur Shartnomaning bir nusxasi bo'ladi.

#### **VIII. Korrupsiyaga qarshi talablar**


8.1. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishontiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi.

8.2. Iste'molchi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Yetkazib beruvchining manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Yetkazib beruvchining hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarining Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

### IX. Shartnomaning amal qilish muddati

9.1. Mazkur shartnoma G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tgandan so'ng yuridik kuchga ega buladi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

### XI. Tomonlarning manzili va bank rekvizitlari

«Autsorser»	«Buyurtmachi»
<p>Arnasoy tuman "ARNASOY YOUTH" X K                      Manzil Arnasoy tuman G'oliblar SHFY                      Tel.: 99-106-96-71 STIR 307772973                      Hisob raqam 20208005052915711001                      Bank nomi DT Xalk banki Arnasoy filiali                      MFO 00683</p>  <p>Rahbar: <u><i>M. Eshimov</i></u> M.Eshimov</p>	<p>Arnasoy tuman Tibbiyot birlashmasi                      Manzil: Arnasoy tuman Bobur MFY                      Tel:72-372-11-23 STIRi 200 331 571                      SHXV 100022860082017073101054001                      Moliya vazirligi Yagona g'azna                      hisobvarag'i                      YAG'H 23402000300100001010                      Bank nomi Toshkent sh. Markaziy bank                      HKKM MFO 00014                      G'aznachilik STIRi 201122919</p> <p>Rahbar: _____ M.Abdusattarova</p>



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING  
QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

FE60811332

1. Loyihaning turi – shartnoma.
2. Loyihaning nomi – 43 000 000 ( qirq uch million ) so‘mlik Outsorsing shartlari asosida xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma № 4

Shartnoma tomonlari:

Autsorser - «ARNASOY YOUTH» XK nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi Eshimov Mamadiyor.

Buyurtmachi - Arnasoy tuman tibbiyot birlashmasi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi rahbari Abdusattarova Muxabbat.

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana – “Arnasoy tumani tibbiyot birlashmasi” 2022 yil 12 aprel.

4.Loyiha bo‘yicha taklif va e‘tirozlar:

Loyixa amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Arnasoy tuman yuridik  
xizmat ko‘rsatish markazi  
bosh yuriskonsulti:**



**A.G'aybullayev**

**12.04.2022 yil**

Арнасой туман тиббиёт бирлашмасига Аутсоринг иш-хизматинини курсатиш бўйича.

2022 йил « 12 »

*Этказ*

МАЖЛИС БАЁННОМАСИ № 1

Арнасой туман

**Қатнашдилар:**

Н.Абдуалимова - Арнасой туман тиббиёт бирлашмаси бошлик уринбосари баҳолаш танлов комиссиясининг раиси

**КОМИССИЯ АЪЗОЛАРИ:**

Ш.Сапаров - Арнасой ТТБ иктисодчиси, комиссия аъзоси  
Б.Махмудов - Арнасой ТТБ моддий ҳисобчи, комиссия аъзоси  
С.Каюмов - Арнасой ТТБ хужалик мудир, комиссия аъзоси  
М.Хужамкулова - Арнасой ТТБ ошпаз, комиссия аъзоси


**Кун тартиби:**

Арнасой туман тиббиёт бирлашмасига Аутсоринг иш-хизматинини курсатиш бўйича берилган 26 март 2022-йилдаги 43.100.000 (қирк уч миллион бир юз минг) сўмлик, №59938-сонли лотга асосан асосан энг яхши таклифларни танлаш бўйича ўтказилган танловда ғолиб аникланди ҳамда 2 иш кунини мобайнида танлов натижаларига асосан аниқланган ғолибга нисбатан рақобатчилар томонидан ҳеч қандай этирозлар бўлмаганлиги сабабли ЧП «ARNASOY YOUTH» билан 43.000.000 (қирк уч миллион) сўмга Аутсоринг иш-хизматинини курсатиш бўйича шартнома тузишни кўриб чиқилди.


**Қарор қилади:**

1. ЧП «ARNASOY YOUTH» томонидан Арнасой туман тиббиёт бирлашмасига Аутсоринг иш-хизматинини курсатиш бўйича рақобатчиларга нисбатан энг яхши таклифларни берганлиги ҳамда 2 иш кунини мобайнида ғолибга нисбатан ҳеч қандай этирозлар бўлмаганлиги сабабли ЧП «ARNASOY YOUTH» билан Аутсоринг шартлари асосида хизматларни кўрсатиш шартномаси тузилсин.

Н.Абдуалимова  
(И.Ф.О.)

  
\_\_\_\_\_  
(Имзо)


Ш.Сапаров  
(И.Ф.О.)

  
\_\_\_\_\_  
(Имзо)


Б.Махмудов  
(И.Ф.О.)

  
\_\_\_\_\_  
(Имзо)

С.Каюмов  
(И.Ф.О.)

  
\_\_\_\_\_  
(Имзо)

М.Хужамкулова  
(И.Ф.О.)

  
\_\_\_\_\_  
(Имзо)